



UDK:1:111:378.575

Jaxongir SODIQOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: sodiqovjaxongir827@gmail.com

Renaissance university dots. PhDU.Ergashev taqrizi asosida

GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK TA'LIMNING IJTIMOIIY, IQTISODIY VA MADANIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv jarayonida ekologik ta'limni rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Ekologik muammolarning kuchayishi insoniyat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanib, ekologik ta'limning aholi o'ngini yuksaltirish, jismoniy ta'minlash va milliy madaniyatda ekologik madaniyatdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik globallashuv, ekologik ta'lim, tashkilot, ijtimoiy ong, iqtisodiy samaradorlik, ekologik madaniyat.

СОЦИАЛЬНОЕ, ЭКОНОМИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В статье анализируется социальное, экономическое и культурное значение развития экологического образования в условиях глобализации. Подчеркивается, что обострение экологических проблем оказывает серьезное влияние на развитие человечества, а также освещается роль экологического образования в повышении благосостояния населения, обеспечении физической безопасности и развитии экологической культуры в национальной культуре.

Ключевые слова: экологическая глобализация, экологическое образование, организация, общественное сознание, экономическая эффективность, экологическая культура.

THE SOCIAL, ECONOMIC, AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Annotation

This article analyzes the social, economic and cultural significance of the development of environmental education in the process of globalization. It is emphasized that the intensification of environmental problems has a serious impact on human development, and the role of environmental education in improving the well-being of the population, physical security and environmental culture in national culture is highlighted.

Key words: Ecological globalization, environmental education, organization, social consciousness, economic efficiency, environmental culture.

Kirish. XXI asr globallashuv jarayonlari bilan chambachas bog'liq holda kechmoqda. Globallashuv mafaqat iqtisodiy munosabatlarni, balki ekologik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, o'rmonlarning qisqarishi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi global ekologik muammolar butun insoniyat taqdiriga jiddiy zarar yetkazmoqda. Ushbu sharoitda ekologik muammolar milliy chegaradan chiqib, global tus ola boshlaydi. Shu bois ekologik ta'limni rivojlantirishni bugungi kunda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunki buning natijasida inson tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi, ekologik madaniyat yuksaladi, resurslardan barqaror foydalanish qaror topadi.

Globallashuv sharoitida ekologik ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini tahlil qilish bu jarayonni chuqurroq anglash va uning maqsadlarini aniqlash imkonini beradi. Bu nafaqat milliy ta'lim tizimi, balki butun jamiyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Keyingi yillardagi globallashuv jarayonlari mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ko'plab muammolarni ham yuzaga keltirdi. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va cheklangan tabiiy resurslar kabi global muammolar insoniyat uchun dolzarb muammolarni keltirib chiqaradi. Binobarin, ekologik ta'limni rivojlantirish nafaqat ilmiy-pedagogik zarurat, balki ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

majburiyat sifatida ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekologik globallashuv va ekologik ta'lim masalalari ko'plab olim va tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Jahon miqyosida bu masalaning nazariy va amaliy asoslari xalqaro tashkilotlar hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Xususan, YUNESKOning Barqaror rivojlanish uchun ta'lim dasturi (2022) ekologik ta'limning tashkiliy rolini alohida tartibga soladi. Unda yoshlikdan ekologik bilimlarni singdirish, ta'lim jarayonini amaliyotga yo'naltirish, atrof-muhit omillarini madaniyat bilan uzviy bog'lash zarurligi ta'kidlangan [6].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan tayyorlangan Global Environment Outlook hisobotida (2023) ta'limning ekologik muammolarning globallashuvi, iqlim o'zgarishi va oqibatlarini yumshatishdagi roli alohida qayd etilgan. Bu manbada ekologik ta'lim global xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim usullaridan biri sifatida qaraladi [4].

O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'ng ekologik ta'lim masalasi ham davlat siyosati masalasiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (1992-yil)da ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologiya fanlarini ta'lim tizimiga keng joriy etish vazifalari belgilab berilgan [1].

Masalan, A.A.Xolmatovning "Ekologik ta'lim va tarbiya" (2020) asarida maktab o'quvchilari va talabalarida

ekologik ta'lim va ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan [5]. I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (2008) asarida milliy ma'naviyat bilan uyg'unlikda ekologik ongni rivojlantirish g'oyasi ilgari surilgan [2].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'limga nafaqat tabiiy muhitni saqlashning muhim omili, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va madaniy jarayonlarning muhim omili sifatida ham qaraladi. Qolaversa, ko'plab ilmiy manbalarda ekologik omillarni yosh avlod ongiga ta'lim jarayoni orqali joriy etish global ekologik muammolarni hal etishning eng samarali usuli sifatida e'tirof etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Globallashuv sharoitida ekologik ta'limning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatiga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ekologik globallashuv sharoitida ta'lim tizimini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish zarur. Bugungi kunda ekologik ta'lim maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha butun dunyoda samarali amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan fanlarni o'quv rejasiga keng kiritish, yoshlarni ishlab chiqarish jarayonlariga faol jalb etish ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, madaniyat va san'at orqali ekologik ongni ommalashtirish ham ekologik mas'uliyatni oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Aholining ekologik mas'uliyatini kuchaytirish, yosh avlodga tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash ekologik ta'limning eng muhim vazifalaridandir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim yo'lga qo'yilgan jamiyatlarda aholining ekologik madaniyati darajasi yuqori, maktab va oliy o'quv yurtlarida ekologik fanlarning o'qitilishi yoshlarning ekologik xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, ekologik muhokama va loyihalarda yoshlarning faol ishtirok etishi ularning ijtimoiy faolligini oshirib, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirmoqda [3].

Ekologik bilim iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim olgan yoshlar resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini egallasa, quyosh energiyasi va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari kabi ekologik innovatsiyalar yangi ish o'rinlari yaratib, bozor iqtisodiyoti sharoitida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ekologik ta'limni kengaytirish milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Ekologik qadriyatlarini milliy madaniyatga singdirish ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. An'anaviy o'zbek turmush tarzida suvga, daraxtlarga, tabiatga g'amxo'rlik qilish, atrof-muhitni asrashning qadimiy an'analari ekologik madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy ekologik ta'lim ushbu qadriyatlarni ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashtiradi va yoshlar ongida ekologik dunyoqarashni rivojlantiradi. Madaniyat va san'at orqali ekologik g'oyalarni keng targ'ib qilish ekologik madaniyatni ommalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, ekologik ta'lim globallashuv sharoitida ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy samaradorlik va madaniy uyg'unlikning muhim kafolati hisoblanadi [5].

O'zbekistonda ekologik ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi va xalqaro tajriba hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimida ishlab chiqarish, innovatsion va amaliy faoliyatni ekologik yondashuv bilan integratsiyalashuvi global ekologik jarayonlar oqibatlarini yumshatishning eng samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etilgan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi qarori bilan "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish" konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjat aholining ekologik savodxonligini oshirish, "yashil" tamoyillarga asoslangan ta'lim tizimini rivojlantirish,

jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan muhim strategik dastur hisoblanadi. Konsepsiya milliy ta'lim tizimida ekologik tadqiqotlarni kengaytirish, yosh avlodga atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, barqaror rivojlanish g'oyalarini singdirish orqali ekologik madaniyatni yangi bosqichga ko'tarishni nazarda tutadi.

2024–2025-yillarda qabul qilingan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham bu yondashuvni mustahkamlaydi. Jumladan, Prezidentning 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan ekohududlar, qo'riqxonalar va tabiiy resurslardan foydalanish qoidalarini yangilandi. Ushbu hujjat ekologik ta'lim, ekoturizm, mahalliy hamjamiyatni ekologik loyihalarga jalb etishning yangi tartib va mexanizmlarini belgilab beradi. Tegishli me'yoriy hujjatlarda ham davlat boshqaruvi tizimida ekologik xavfsizlik, atrof-muhit monitoringi va ta'limni kuchaytirish bo'yicha majburiyatlar belgilangan [3].

YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish uchun ta'lim strategiyasi (BMT) ta'lim tizimini 2030-yilgacha "yashil" yo'nalishga o'tkazishni maqsad qilgan. Ushbu strategiya doirasida iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha siyosat, o'quv dasturlari va "yo'l xaritalari" ishlab chiqilgan. YUNESKoning ESD dasturi O'zbekistonning ekologik madaniyat konsepsiyasiga mos keladi, bu milliy ta'lim siyosatini global ekologik maqsadlar bilan birlashtiradi [6].

So'nggi global ma'lumotlar ekologik ta'limning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, YuNESKO biosfera rezervati tarmog'ining kengayishi, Yevropadagi tabiiy resurslarga tahdidlar to'g'risida e'lon qilingan hisobotlar, AP News nashrida e'lon qilingan global ekologik tahlillar ekologik savodxonlikni oshirish zarurligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bugungi kunda ekologik ta'lim iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va tabiiy resurslar tanqisligi kabi insoniy muammolarni hal qilishning eng muhim vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi [6].

Ekologik siyosatni samarali amalga oshirish uchun qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'g'ri talqin qilish alohida ahamiyatga ega. Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida strategik yo'nalishlar, ustuvor vazifalar, konseptual maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu hujjatlar asosida byudjet mablag'lari ajratiladi va umumiy chora-tadbirlar belgilanadi. Shu asosda tegishli vazirlik va idoralar — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ekologiya vazirligi, Iqlim o'zgarishi vazirligi amaliy dasturlar, qoidalar va standartlar ishlab chiqadi [5].

Ekologik ta'limning ijtimoiy ahamiyati uning odamlar kundalik xulq-atvorini o'zgartirish, mas'uliyatni oshirish, fuqarolar faolligini oshirish qobiliyatidir. Ekologik ta'lim suvni tejash, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish madaniyatini tarbiyalash orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, ekologik ta'lim har bir fuqaroga "iqlim faoli" bo'lishga imkon beradi [6].

Iqtisodiy nuqtai nazardan ekologik ta'lim "yashil iqtisodiyot"ning asosini tashkil qiladi. Energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash, atrof-muhit monitoringi, ekoturizm yo'nalishlarida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, iqlim bo'yicha ta'lim iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi va ishlab chiqarish xarajalarini kamaytiradi. Global va mintaqaviy hisobotlar ham bu tendentsiyani tasdiqlaydi va ekologik ta'limning iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sirini ta'kidlaydi [6].

Madaniy jihatdan ekologik ta'lim milliy qadriyatlar va an'anaviy bilimlarni saqlashga xizmat qiladi. Ekologik ta'lim

dasturlariga qadimgi qishloq xo'jaligi amaliyotlari, suvni saqlash usullari va landshaftni saqlash tamoyillarini kiritish madaniy o'ziga xoslikni mustahkamlaydi va biomadaniyatni saqlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy globallashuv davrida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Texnik taraqqiyot, urbanizatsiya va sanoatlashtirish hayotni yanada qulay qilish bilan birga, ekologik muvozanatga jiddiy tahdid solmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta'limning ahamiyati beqiyos: u ekologik mas'uliyatni oshiradi va barqaror rivojlanish g'oyalarini hayot tarziga aylantirishga yordam beradi.

Ekologik ta'limning ijtimoiy ahamiyati aholining ekologik ongini yuksaltirish, fuqarolik ongini rivojlantirish, jamiyatda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishdan iborat. Birlashtiruvchi g'oya sifatida bunday ta'lim odamlarni atrof-muhitni saqlashdagi shaxsiy rolini tan olishga undaydi. Iqtisodiy jihatdan ekologik ta'lim barqaror ishlab chiqarish, resurslarni tejash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini hayotga

tatbiq etishda muhim o'rin tutadi. Atrof-muhitni asrashga qaratilgan bilim va malakalar mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, innovatsion salohiyati, ekoturizm kabi sohalarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning madaniy ahamiyati ekologik qadriyatlarni milliy madaniyat bilan uzviy bog'lashda, ajdodlardan meros bo'lib qolgan tabiatga hurmat, poklik, nafosat, halollik kabi qadriyatlarni yangicha mazmunda talqin etishda namoyon bo'ladi. Ekologik ta'lim inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni qadrlashga, tabiatni nafaqat manba, balki ma'naviy tayanch sifatida ham idrok etishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida ekologik ta'lim insoniyatning kelajakka qo'ygan eng muhim sarmoyasidir. U nafaqat ekologik barqarorlikni, balki ijtimoiy totuvlikni, iqtisodiy xavfsizlikni va madaniy totuvlikni ta'minlovchi kuch sifatida inson tafakkurini yangilaydi. Binobarin, ekologik ta'limni har bir jamiyat uchun strategik ustuvor vazifaga aylantirish hozirgi va kelajak avlodlarning eng muhim mas'uliyati hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 754-XII-sonli "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni. 1992.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
3. Sattorov Z.M. Ekologiya. – Toshkent: Sano-standart, 2018. – 362 b.
4. UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi). Global atrof-muhit istiqbollari hisoboti (Global Environment Outlook – GEO-7). – Nayrobi. 2023. – 210 b.
5. Xolmatov A.A. Ekologik ta'lim va tarbiya. – Toshkent. 2020. – 174 b.
6. YUNESKO. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim: konseptual asoslar va amaliy yo'nalishlar. – Parij. 2022. – 156 b.